BIZNES JARAYONLARINI OPTIMALLASHTIRISHDA "LEAN MANAGEMENT" TIZIMINI JORIY ETISHNING ILMIY ASOSLARI	775
Muhiddinov Ozodbek Ikromjon o'g'li, Shakirova Gulrux Po'latjon qizi, Ozodbek Musayev	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASINING TURISTIK POTENTIALI UMUMIY TAVSIFI.....	783
Madaminova Sanobar Askarovna	
KICHIK BIZNES KORXONALARIDA EKSPORT MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQARISH KONSEPSIYASINI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI.....	789
Boymirzayev Zokirjon Mashrabboyevich	
AHOLINING TURMUSH DARAJASI VA UNING KO'RSATKICHLARI.....	794
Sayitbayev Shermirza Datkamirzayevich	



KORXONA ASOSIY XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKT SIFATIDA AHAMIYATI.....	799
Yuldashova Yoqutoy Murodjon qizi, Yuldashev Abduhakim Abdukarimovich	
DAVLAT ISHTIROKIDAGI KORXONALARNI XUSUSIYLASHTIRISH JARAYONIDA KADRLAR SALOHİYATINI SAQLAB QOLISH VA RIVOJLANTIRISH STRATEGİYALARI.....	803
Bekchanov Ruslan Ambiyatovich	
PARALLEL KORPUS ASOSIDA INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA QISHLOQ XO'JALIK ATAMALARINING EKVIVALENTLIK XUSUSIYATLARI.....	807
Yulduz Xalilova Nasriddinovna	
KOLBASA VA GO'SHT MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQUARISHDA CHIQUINDISIZ ISHLAB CHIQUARISH ("ZERO WASTE") MODELINING ROLI: XORIJIY TAJRIBA VA O'ZBEKISTON SHAROITIDAGI AMALIY YO'NALISHLAR.....	810
Eshtemirova Anora Norboy qizi	
EKSPORTYO'R KORXONALARDA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTI BO'YICHA QO'SHILGAN QIYMAT VA FOYDA SOLIG'INI TO'G'RI HISOBLANISHI TAHLILI VA ISTIQBOLLARI	814
Sobirova Xilola Rustam qizi	
O'ZBEKISTONDA TO'QIMACHILIK VA TIKUV-TRIKOTAJ SANOATI RIVOJLANISHINING MILLIY RAQOBATBARDOSHLIKNI OSHIRISHDAGI O'RNI	819
Ikramova Taxmina Latifovna	
YANGI RIVOJLANAYOTGAN BOZORLARIDA HR QAROR QABUL QILISH JARAYONINI TAKOMILLASHTIRISHDA IQTISODIY TA'LIMNING ROLI	824
Dilfuza Shokirova	
UZOQ MUDDATLI AKTIVLAR HISOBINI XALQARO BUXGALTERIYA STANDARTLARI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH.....	833
Abdiev Mutolib Anvar o'g'li	
DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK TIZIMINING NAZARIY VA USLUBIY ASOSLARI	838
Raximjonova Shohsanam Baxodirovna	



DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK TIZIMINING NAZARIY VA USLUBIY ASOSLARI

Raximjonova Shohsanam Baxodirovna

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil tadqiqotchisi

<https://orcid.org/0009-0002-4813-36301>

E-mail: dloong1507@mail.ru

Annotatsiya. Mazkur maqolada davlat-xususiy sheriklik (DXSh) tizimining nazariy va uslubiy asoslari hamda uning O'zbekistonda qo'llanishi yoritiladi. DXSh — davlat va xususiy sektor o'rtasidagi moliyalashtirish va boshqaruv bo'yicha hamkorlik shakli bo'lib, jahon tajribasida u ayniqsa infratuzilma va ijtimoiy sohalarda samarali ekanligi isbotlangan. O'zbekistonda 2019-yildan boshlab DXSh bo'yicha huquqiy baza shakllantirilib, yirik loyihalarga xorijiy investitsiyalar jalb etilmoqda. 2021–2024-yillarda DXSh portfeli 6,2 milliard dollardan 31 milliard dollarga yetdi, loyihalarining asosiy qismi energetika yo'nalishida jamlangan. Biroq tahlillar uzoq muddatli moliyaviy majburiyatlar riskini ham ko'rsatmoqda. Maqola yakunida DXSh siyosatini takomillashtirish bo'yicha asosiy takliflar keltiriladi.

Kalit so'zlar: davlat-xususiy sheriklik; investitsiya; konsessiya; infratuzilma; O'zbekiston; iqtisodiy rivojlanish.

Abstract. This article discusses the theoretical and methodological foundations of the public-private partnership (PPP) system and its implementation in Uzbekistan. PPP is a form of cooperation between the public and private sectors in financing and management, and global experience demonstrates its effectiveness particularly in infrastructure and social sectors. Since 2019, Uzbekistan has established a legal framework for PPPs and has been attracting foreign investment into large-scale projects. Between 2021–2024, the PPP portfolio increased from USD 6.2 billion to USD 31 billion, with the majority of projects concentrated in the energy sector. However, the analysis also highlights risks associated with long-term financial obligations. The article concludes with key recommendations for improving PPP policy.

Key words: public-private partnership; investment; concession; infrastructure; Uzbekistan; economic development.

Аннотация. В данной статье рассматриваются теоретические и методологические основы системы государственно-частного партнёрства (ГЧП), а также особенности её применения в Узбекистане. ГЧП представляет собой форму сотрудничества между государственным и частным секторами в сфере финансирования и управления, и мировой опыт подтверждает эффективность данной модели прежде всего в инфраструктурных и социальных секторах. В Узбекистане с 2019-года сформирована правовая база по ГЧП и привлекаются иностранные инвестиции в крупные проекты. В 2021–2024-годах портфель ГЧП вырос с 6,2 млрд долларов до 31 млрд долларов, при этом большая часть проектов сосредоточена в энергетическом секторе. Однако анализ показывает наличие рисков, связанных с долгосрочными финансовыми обязательствами. В заключение представлены основные предложения по совершенствованию политики ГЧП.

Ключевые слова: государственно-частное партнёрство; инвестиции; концессия; инфраструктура; Узбекистан; экономическое развитие.

KIRISH

Davlat-xususiy sheriklik (DXSh) tushunchasi davlat va xususiy sektor o'rtasidagi uzoq muddatli hamkorlik munosabatlarini anglatadi. Ushbu mexanizmدا xususiy sektor o'zining moliyaviy, texnik va boshqaruv resurslaridan foydalanib, loyiha tashabbuskori va ijrochisi sifatida faoliyat yuritadi, davlat esa loyiha uchun zarur bo'lgan aktivlarni (masalan, yer uchastkalari, infratuzilma bilan bog'liq boshlang'ich shart-sharoitlar) taqdim etadi va tayyorgarlik bosqichlarini moliyalashtiradi. Xalqaro amaliyotda Public-Private Partnership (PPP) atamasi aynan ana shunday o'zaro manfaatli hamkorlikni ifodalaydi. Jahon tajribasida DXSh modeli asosan transport yo'llari, energetika obyektlari, ta'lim va sog'liqni saqlash kabi ijtimoiy va iqtisodiy ahamiyatga ega sohalarda keng qo'llanadi. Masalan, 1990-yillarda Buyuk Britaniya tomonidan joriy qilingan Private Financing Initiative (PFI) modeli davlatning yirik infratuzilma loyihalarini xususiy sektor orqali moliyalashtirishga imkon bergan va byudjet xarajatlarini sezilarli darajada optimallashtirgan; ayrim tahlillarda ushbu yondashuv yillik o'rtacha 17 foiz tejamlorlikni ta'minlagani qayd etiladi. Keyinchalik ushbu amaliyot Yevropa mamlakatlari, Kanada, Avstraliya



va Osiyo davlatlari tomonidan ham keng qo'llana boshlandi, natijada PPP modeli global darajada tan olingan iqtisodiy instrumentga aylandi. O'zbekiston mustaqillikdan so'ng iqtisodiyotni liberallashtirish, investitsiya muhiti va tadbirkorlikni rivojlantirishga ustuvor vazifa sifatida yondashib kelmoqda. Ushbu jarayonda DXSh mexanizmi muhim islohotlar tarkibiga kiritildi. 2019-yil 10-may kuni qabul qilingan "Davlat-xususiy sheriklik to'g'risida"gi Qonun mamlakatda PPP loyihalarini amalga oshirish uchun mustahkam huquqiy poydevor yaratdi. Qonun qabul qilingach, energetika, transport, sog'liqni saqlash, maktabgacha ta'lim va oliy ta'lim kabi sohalarda DXSh asosidagi yirik loyihalar bosqichma-bosqich yo'lga qo'yila boshlandi.

2024-yil avgustida Prezidentning PQ-308-son farmoni bilan DXShni 2024–2030-yillar davomida rivojlantirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar tasdiqlandi hamda Vazirlar Mahkamasi huzurida DXSh Loyihalari Markazi tashkil etildi. Ushbu markazning vazifalari sifatida loyihalarni tanlash, baholash, tender jarayonlarini muvofiqlashtirish, shartnomalar ijrosini monitoring qilish va xalqaro investorlar bilan ishlash kabi strategik yo'nalishlar belgilandi. Mazkur islohotlar davlat va xususiy sektor o'rtasidagi sheriklikni kengaytirish, infratuzilma va ijtimoiy xizmatlar sifatini oshirish, investitsiyalarni jalb etish hamda davlat xarajatlarini optimallashtirishga qaratilgan. Natijada O'zbekistonda DXSh modeli nafaqat iqtisodiy rivojlanishning muhim mexanizmi, balki ta'lim, sog'liqni saqlash va transport singari ijtimoiy sohalarda ham barqaror o'sishga xizmat qilayotgan samarali vositaga aylanmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

DXSh mavzusida nashr etilgan ilmiy tadqiqotlar xalqaro va mahalliy miqyosda keng o'rganilgan bo'lib, ular ushbu mexanizmning huquqiy, iqtisodiy va institutsional xususiyatlarini turli tomonlama yoritadi. G'ulomov (2024) o'z ishida davlat-xususiy sheriklikni davlat va biznesning infratuzilma hamda ijtimoiy xizmatlarni ta'minlashdagi resurslarini birlashtiruvchi samarali mexanizm sifatida tavsiflaydi. Muallif DXShning asosiy tamoyillari sifatida shaffoflik, qonuniy tenglik, musobaqalashuv va korrupsiyaga qarshi mexanizmlarning kuchliligini ta'kidlab, aynan ushbu omillar loyihalarning muvaffaqiyatiga bevosita ta'sir qilishi haqida xulosa beradi. Mo'ydinov (2024) esa DXSh loyihalarini huquqiy va iqtisodiy nuqtai nazardan tahlil etib, loyihalarning turli shakllarini tahliliy ravishda solishtiradi. U konsessiya, investitsiya hamkorligi va qo'shma boshqaruv kabi modellarni batafsil sharhlab, ularning ustunliklari va qo'llanish sharoitlarini ko'rsatib o'tadi. Xususan, konsessiya shartnomalarida xususiy sektor infratuzilmani quradi, uni ma'lum muddat davomida boshqaradi, so'ng davlatga topshiradi. Bu model infratuzilma barpo etishdagi moliyaviy yukni kamaytirishi bilan birga, xizmat sifati va samaradorligini oshirishga ham xizmat qiladi.

DXSh bo'yicha xalqaro adabiyotlar loyihalarning sohalar kesimidagi taqsimotini ham tahlil qiladi. Masalan, Yevropa mamlakatlarida DXSh transport infratuzilmasi (avtoyo'llar, metro, temir yo'l liniyalari), energetika tizimlari, suv ta'minoti, shuningdek maktab va shifoxona kabi ijtimoiy obyektlarni moliyalashtirishda keng qo'llaniladi. Britaniya tajribasi bu borada e'tiborga loyiq: faqat 2019-yilda imzolangan DXSh shartnomalarining umumiy qiymati 3,3 milliard yevro bo'lib, loyihalar davlat byudjetida yillik 17 foizgacha iqtisod qilish imkonini yaratgani ta'kidlanadi. Xalqaro tadqiqotlar DXShning davlat xarajatlarini optimallashtirish, risklarni xususiy sherik bilan bo'lishish va xizmatlar sifatini yaxshilashdagi afzalliklarini qayd etadi, shu bilan birga kelajakdagi majburiyatlarni baholashning ahamiyatini alohida ta'kidlaydi.

Ilmiy manbalarda DXSh loyihalarini baholash metodikasi ham keng yoritilgan. Jumladan, rentabellikni aniqlash, risklarni baholash, Value for Money (VfM) tahlili, davlatning uzoq muddatli fiskal majburiyatlarini hisoblash, monitoring va baholash tizimlari DXSh muvaffaqiyatining asosiy mezonlari sifatida ko'rsatiladi. Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki kabi institutlar tomonidan ishlab chiqilgan metodologiyalar amaliyotda ko'plab davlatlar tomonidan qo'llanilib, loyihalarning sifati va shaffofligini ta'minlashga xizmat qilmoqda. O'zbekiston bo'yicha adabiyotlar ham DXShning so'nggi yillardagi jadal rivojini yoritadi. Hukumat portalida e'lon qilingan materiallarda DXSh loyihalarining moliyalashtirish manbalari, eksport salohiyatiga ta'siri, xususiy sarmoyadorlarning ishtiroki va davlat uchun yaratilayotgan iqtisodiy samaralar batafsil ko'rib chiqiladi. Xalqaro moliya institutlarining hisobotlarida esa O'zbekiston DXSh bozorining o'sish sur'atlari yuqori ekani, portfel hajmi 2021–2024-yillar davomida bir necha barobar kengaygani va energetika bilan ta'lim sohasida faol joriy etilayotgani ta'kidlanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda davlat-xususiy sheriklik (DXSh) tizimining O'zbekiston oliy ta'limi misolida qo'llanish holati, samaradorligi va rivojlantirish imkoniyatlarini baholash uchun bir nechta ilmiy-uslubiy yondashuvlar qo'llanildi. Metodologiya uch asosiy yo'nalishni o'z ichiga oladi: normativ-huquqiy tahlil, statistik-iqtisodiy tahlil va taqqoslovchi (komparativ) tahlil. Birinchidan, DXSh sohasiga oid normativ-huquqiy hujjatlar — qonunlar, Prezident farmonlari, hukumat qarorlari va strategik dasturlar tahlil qilindi. Mazkur yondashuv DXShning huquqiy



asoslari, davlat va xususiy sektor majburiyatlari, shartnomalar tuzilishi va ularning amal qilish mexanizmlarini o'rganishga yordam berdi. Shu doirada DXSh bo'yicha mavjud institutsional tuzilma, vakolatlarining taqsimlanishi, davlat kafolatlari va monitoring mexanizmlarining shakllanishi o'rganildi. Ikkinchidan, statistik va iqtisodiy tahlil usullari qo'llanib, O'zbekistonda DXSh loyihalarining hajmi, yo'nalishlar bo'yicha taqsimoti, moliyalashtirish manbalari va ularning YalMdagi ulushi o'rganildi.

DXSh portfelining o'sish dinamikasi, energetika va ta'lim sohasidagi loyihalar ulushi, talabalar yotoqxonalari qurilishining iqtisodiy samaradorligi, shuningdek davlat byudjetiga tushadigan kelajakdagi moliyaviy majburiyatlar baholandi. Raqamlar va indikatorlar asosida tendensiyalar aniqlanib, DXShning iqtisodiy barqarorlikka ta'siri statistik ko'rsatkichlar orqali asoslandi. Metodologiyaning yana bir elementi sifatida ekspertlar fikrlari, iqtisodiy tahlillar, OTMLar bo'yicha mavjud amaliy natijalar (talabalar qamrovi, yotoqxona quvvati, nodavlat OTMLar soni) o'rganildi. DXSh infratuzilmasining ta'lim sifati, xizmatlardan foydalanish darajasi va iqtisodiy xavf-xatarlar bilan bog'liqligi tizimli ravishda tahlil qilindi. Natijada qo'llangan metodlar DXShning nazariy asoslari va amaliy mexanizmlarini kompleks o'rganish, mavjud muammolarni aniqlash va ularning yechimlari bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqishga imkon berdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekistonda davlat-xususiy sheriklik (DXSh) mexanizmi izchil rivojlanib bormoqda. O'zbekiston Respublikasining, 10.05.2019 yildagi "Davlat-xususiy sheriklik to'g'risida"gi O'RQ-537-son¹ Qonunining qabul qilinishi ushbu yo'nalishdagi loyihalarni amalga oshirish tartibi, moliyalashtirish mexanizmlari va sheriklikning huquqiy asoslarini aniq belgilab berdi. 2024-yil avgust oyida qabul qilingan Prezident farmoni bilan DXSh Loyiholari Markazi tashkil etildi va unga DXSh jamg'armasi mablag'larini boshqarish, loyihalarni tayyorlash va muvofiqlashtirish kabi muhim vazifalar yuklatildi. Shundan so'ng DXSh loyihalarining konsepsiyadan boshlab shartnoma kuchga kirguniga qadar bo'lgan bosqichlari yagona metodika asosida tartibga solina boshlandi. Statistik ma'lumotlar DXSh loyiholari portfelining yildan-yilga jadal kengayayotganini ko'rsatadi. 2021-yil yakuniga kelib mamlakatda 200 dan ortiq DXSh loyihasi mavjud bo'lib, ularning umumiy qiymati 6,2 milliard AQSh dollarini tashkil etgan va bu ko'rsatkich YalMning qariyb 8 foiziga teng edi. 2024-yilga kelib DXSh portfeli 31 milliard dollarga yetdi, bu esa milliy iqtisodiyot hajmining 27 foiziga teng. Soha kesimida bu loyihalarining asosiy qismi — taxminan 93 foizi — energetika yo'nalishiga to'g'ri keladi, qolgan ulushni kommunal xizmatlar, ta'lim va boshqa ijtimoiy loyihalar tashkil qiladi. DXSh loyihalarini moliyalashtirishda xalqaro moliya institutlarining ishtiroki sezilarli darajada oshgan.

Osiyo Taraqqiyot banki, Yevropa Tiklanish va Taraqqiyot banki, Jahon banki, Xalqaro Moliya Korporatsiyasi kabi tashkilotlar O'zbekiston loyihalariga kredit liniyalari, texnik ko'mak va ekspertiza taqdim etmoqda. Masalan, 2023-yilda O'zbekiston umumiy qiymati 1,6 milliard dollarga teng 6 ta yirik DXSh loyihasini imzoladi. Bu ko'rsatkich mamlakatning Markaziy Osiyo va Yevropa mintaqasidagi past va o'rta daromadli davlatlar orasida DXSh majburiyatlari bo'yicha yetakchi pozitsiyalaridan birini egallayotganini ko'rsatadi. 2025–2030-yillarga mo'ljallangan prognozlarga ko'ra, respublikada yangi DXSh loyihalarining umumiy hajmi 30 milliard dollardan oshishi kutilmoqda. Agar mazkur loyihalar to'liq amalga oshsa, 2026-yilga borib DXSh portfeli YalMning 34 foizigacha yetishi mumkin. Shu bilan birga, ushbu ko'lamdagi loyihalar davlat uchun uzoq muddatli to'lov majburiyatlarining ortish xavfini yuzaga keltiradi. Shu sababli 2025-yilgi davlat byudjetida DXSh bo'yicha majburiyatlar uchun 6,5 milliard dollarlik limit belgilangan. Xalqaro moliya institutlari ekspertlari bu limitni kelgusida bosqichma-bosqich pasaytirishni va fiskal barqarorlikni saqlash uchun ehtiyotkor siyosat yuritishni tavsiya etmoqda. O'zbekistonda davlat-xususiy sheriklik (DXSh) tizimining rivojlanish dinamikasi statistik ma'lumotlar va mavjud loyihalar portfeli asosida baholanganda, ushbu mexanizmning milliy iqtisodiyotdagi ahamiyati yildan-yilga ortib borayotgani kuzatiladi. 2019-yilgi DXSh to'g'risidagi Qonun joriy etilgach, loyiha boshqaruvi, moliyalashtirish tartibi va tender jarayonlari bosqichma-bosqich shakllandi. Aynan shu davrdan boshlab DXSh loyihalarining soni va umumiy qiymati sezilarli sur'atlarda oshdi. Stat ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, 2021-yilda mamlakatdagi DXSh loyiholari portfeli qariyb 6,2 milliard dollar bo'lgan bo'lsa, 2024-yil oxiriga kelib bu ko'rsatkich 31 milliard dollarga yetdi. Ya'ni 3 yil davomida portfel hajmi qariyb besh baravarga oshgan. Bu o'sish sur'ati DXSh mexanizmining O'zbekiston investitsiya siyosatidagi ustuvor yo'nalishga aylanganini bildiradi. DXSh portfelining tarkibiy tuzilmasi bo'yicha tahlil energetika sohasining mutlaq ustunligini ko'rsatadi.

2024-yil yakuni bo'yicha umumiy loyihalar qiymatining 93 foizi aynan energiya infratuzilmasiga to'g'ri kelgan bo'lib, bu qariyb 28,8 milliard dollarni tashkil etadi. Qolgan qismi kommunal xizmatlar (taxminan 5 foiz), ta'lim sektori (0,8 foiz), sog'liqni saqlash va boshqa xizmatlar hissasiga to'g'ri keladi. Bunday proporsiya sektorlararo disbalans mavjudligini, ya'ni ijtimoiy xizmatlar sohalari hali to'liq darajada DXShdan foydalanmayotganini ko'rsatadi. Shunga qaramay, ta'lim sohasidagi yotoqxona qurilishi, nodavlat OTMLar tashkiloti va ayrim o'quv

1 <https://lex.uz/ru/docs/-4329270>



infratuzilmalari bo'yicha DXShning joriy etilishi ijtimoiy xizmatlar segmentida ham mexanizmning asta-sekin kengayib borayotganini tasdiqlaydi. Ta'lim sohasiga oid statistika ham ijobiy tendensiyanı ko'rsatadi. DXSh doirasida amalga oshirilgan 57 ta loyiha orqali 29 ming talaba uchun yotoqxon qurılıshı ta'minlangan. 2022-yilning o'zida esa DXSh hamda davlat buyurtmasi asosida umumiy qiymati 43,2 milliard so'mlik yotoqxon loyihalari ishga tushirilgan va talabalar bilan qamrab olish darajasi 43,7 foizga yetgan. Mazkur statistika DXShning ta'lim infratuzilmasini kengaytirish jarayoniga real, o'lchab bo'ladigan ta'sir ko'rsatayotganini isbotlaydi. Biroq ehtiyoj yuqoriligi sababli (qamrov 50 foizdan past), kelgusi yillarda bu sohada loyihalar sonini yanada oshirish zarur. Xalqaro moliya institutlarining ishtiroki bo'yicha stat tahlil ham DXShning tashqi investitsiyalarni jalb etishdagi ahamiyatini ko'rsatadi. 2023-yilda O'zbekiston tomonidan qiymati 1,6 milliard dollar bo'lgan 6 ta yirik DXSh loyihasi imzolangan. Bu Markaziy Osiyo va Yevropa mintaqasidagi past va o'rta daromadli mamlakatlar orasida DXSh majburiyatlarining 40 foiziga teng ulush demakdir.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tahlil shuni ko'rsatdiki, DXSh respublikamiz infratuzilmasini modernizatsiya qilish va investitsiya oqimini ko'paytirish uchun samarali mexanizmga aylanmoqda. Mamlakat tajribasida yirik avtomobil yo'llari, masalan, Toshkent–Samarqand yo'li, shahar infratuzilmasi modernizatsiyasi va ijtimoiy xizmatlar — jumladan, gemodializ tarmoqlari — DXSh orqali barpo etilmoqda. Bunday loyihalar davlat byudjeti uchun qo'shimcha xarajatlarni qisqa muddatda kamaytirishi mumkin, chunki moliyaviy yukning bir qismi yoki to'liq hajmi xususiy sherikka yuklatiladi. Xususan, XXI asrda Buyuk Britaniyada yiliga o'rta 80 ga yaqin DXSh shartnomasi imzolangani byudjetda har yili taxminan 17 foiz tejash imkonini bergani qayd etilgan. Ammo yuqoridagi raqamlar kelajakdagi majburiyatlar ham muhim ekanini ko'rsatadi. Xalqaro valyuta jamg'armasi tahlillariga ko'ra, O'zbekistonning DXSh bo'yicha majburiyatlari YalMning sezilarli ulushini tashkil eta boshlagan va bu uzoq muddatli fiskal risklarni oshiradi. Shu sababli DXSh loyihalarini tanlash, baholash va moliyalashtirishda ehtiyotkorlik, xususan, risklarni to'g'ri taqsimlash, byudjet barqarorligini ta'minlash va uzoq muddatli xarajatlarni hisobga olish zarur. Jahon amaliyotida shaffoflik va musobaqalashuv tamoyillari DXShning samaradorligini oshiruvchi asosiy omillardan biri sifatida qayd etilgan. Shu bois loyiha tanlovida qatnashayotgan xususiy sheriklarni ochiq, adolatli tender asosida tanlash, barcha hujjatlarni oshkora e'lon qilish va korrupsiyaga yo'l qo'ymaslik DXShning barqaror rivojlanishi uchun zarur shartdir.

Davlat-xususiy sheriklik — davlat va xususiy sektor o'rtasidagi infratuzilma va xizmatlarni moliyalashtirish hamda amalga oshirishdagi hamkorlik mexanizmi bo'lib, O'zbekistonda bu yo'nalishda sezilarli yutuqlar kuzatildi. Huquqiy baza mustahkamlandi, yirik transport va energetika ob'ektlari DXSh asosida barpo etilmoqda. Shu bilan birga, DXSh orqali jalb qilingan resurslar mamlakat iqtisodiyotiga katta sarmoya olib kirayotgan bo'lsa-da, uzoq muddatli majburiyatlarning ortishi davlat byudjeti uchun muayyan risklarni yuzaga keltirishi mumkin. Shuning uchun tizimni yanada rivojlantirish qonunchilikni takomillashtirish, institutsional mexanizmlarni kuchaytirish, loyihalarni tanlash jarayonini optimallashtirish, shuningdek, xalqaro tajribalarni bosqichma-bosqich joriy etish orqali amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir. Bunday islohotlar O'zbekiston iqtisodiyotining barqaror rivojlanishida DXSh institutining rolini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining, 10.05.2019 yildagi "Davlat-xususiy sheriklik to'g'risida"gi O'RQ-537-son Qonuni. <https://lex.uz/ru/docs/-4329270>
2. Mo'ydinov O.O. Davlat-xususiy sheriklik loyihalarining nazariy va uslubiy asoslari. Ta'lim, fan va innovatsion g'oyalar olamida, 2024.
3. G'ulomov Sh.B. Davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini qo'llashning xorijiy tajribasi. Economics Journal of Academic Research, 2024.
4. World Bank Group. Public-Private Partnerships in Education: Global Lessons. Washington, 2022.
5. ADB (Asian Development Bank). PPP Framework for Social Infrastructure. Manila, 2021.
6. IMF. Uzbekistan: Fiscal Risks and PPP Commitments Assessment. 2024.
7. EY (Ernst & Young). Global PPP Market Outlook. 2023.
8. OECD. Public-Private Partnerships: Governance and Value for Money. Paris, 2020.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 11

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>